

## QORAXONIYLAR TARIXIGA DOIR JAMOL AD-DIN AL-QARSHIY BERGAN MA'LUMOTLAR TAHLILI

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada 992-1211 yillarda hukmronlik qilgan Qoraxoniylar sulolasining tarixidagi kam o'rganilgan sahifalar ko'rib chiqiladi. Bu davr, albatta, mahalliy va xorijiy tarixshunoslar asarlarida yoritilgan, ammo ularning hammasi ham Abul-Fazl Muhammad ibn Umar ibn Xolid Jamol ad-din al-Qarshiyning "Mulhaqat biss-surax" nomli asarida keltirilgan ma'lumotlardan foydalana olmagan. Ushbu asar XIV asr boshlarida yozilgan.

**Kalit so'zlar:** Jamol ad-din al-Qarshiy, "Mulhaqat biss-surax", Ilig-xon, Nasr Arslon-ilek, Kampirak.

### АНАЛИЗ СВЕДЕНИЙ О КАРАХАНИДАХ, ПРЕДСТАВЛЕННЫХ ДЖАМОЛ АД-ДИНОМ АЛЬ-КАРШИ

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются малоизученные страницы истории династии Караханидов, правившей в 992–1211 годах. Этот период, безусловно, освещался в трудах отечественных и зарубежных историков, однако не все из них смогли использовать сведения, содержащиеся в сочинении Абул-Фазла Мухаммада ибн Умара ибн Халида Джамал ад-дина ал-Карши "Мулхакат бисс-сурах". Данное произведение было написано в начале XIV века.

**Ключевые слова:** Джамал ад-дин ал-Карши, "Мулхакат бисс-сурах", Илиз-хан, Наср Арслан-Илек, Кампирак.

### ANALYSIS OF THE INFORMATION ON THE KARAKHANIDS PROVIDED BY JAMAL AD-DIN AL-QARSHI

**Annotation.** This article examines the little-studied pages of the history of the Karakhanid dynasty, which ruled from 992 to 1211. This period has certainly been covered in the works of both local and foreign historians; however, not all of them were able to make use of the information contained in the work *Mulhaqat biss-surakh* by Abul-Fazl Muhammad ibn Umar ibn Khalid Jamal ad-Din al-Qarshi. This work was written at the beginning of the fourteenth century.

**Keywords:** Jamal ad-Din al-Qarshi, *Mulhaqat biss-surakh*, Ilig-khan, Nasr Arslan-Ilek, Kampirak.

**Kirish.** XIII asr oxiri – XIV asr boshlarida yashab ijod etgan Movarounnahrlik tarixchi adib Jamol ad-din al-Qarshiyning "Mulhaqat biss-surax" asarini o'z davrining ijtimoiy-siyosiy holati, shaharlar, qabilalar, mashhur shaxslar, geografik va tarixiy ma'lumotlarni bayon etishini inobatga olgan holda o'rta asrlar tarixini yorituvchi muhim manbalar sirasiga kiritish mumkin. Asar hajmi katta bo'lmasada, juda ixcham va lo'nda uslubda yozilgan. Har bir tushuncha bo'yicha eng zarur tarixiy faktlar va izohlar berilgani bilan xarakterlanadi. Muallif Qoraxoniylardan keyingi davrda yashagan, shunga qaramay bu davr bo'yicha anchayin aniqroq ma'lumotlarni keltirib o'tganligi diqqatga sazovordir. Jamol ad-din al-Qarshiy o'zining "Mulhaqat biss-surax" asarida ilig-xonlar haqida qisqa hikoyalar keltiradi. U ayrim xonlarni sanab o'tadi, ammo ularning sanalari juda kam hollarda beriladi. Asarda bu xonlarning to'liq nasabnomasi (genealogiyasi) keltirilgan. Tarixchi V. V. Bartold bu manbani tahlil qilib, shunday deydi: "Uning genealogik ma'lumotlari (Ilig-xonlar haqida) Ibn al-Asir ma'lumotlariga qaraganda ancha aniqroqdir" [7. 420].

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** Jamol ad-din al-Qarshiyning asarlarida qoraxoniylar davlati tarixi yoritilishi tadqiq etilish jarayonida Abu Nasr al-Utbiyning "Tarix al-

58 Yaminiy”, As-Sam’oniyning “Kitob al-ansob”, Juvayniyning “Tarixi jahonkushoy” asarlari, shuningdek, sharqshunos olimlardan V.V. Bartold, M.N. Fyodorov, A.Y. Yakubovskiyning ham asarlari tahlilga tortildi. Mavzuni yoritishda qiyosiy tahlil, xronologik yondashuv va interpretatsiya (talqin) metodlaridan foydalanilgan.

**Muhokama va natijalar.** Qaraxoniylarning islomni qabul qilishi haqidagi ma’lumotlar adabiyotda afsonaviy tusda keltiriladi. Ushbu qadimiy rivoyatning dastlabki shakli Jamol ad-din al-Qarshiy asarida saqlanib qolgan. U XI asr tarixchisi Abul-Fath Abdul G’ofir al-Alma “Tarixi Kashg’ar” asariga tayangan holda hikoya qiladi.

Rivoyatga ko’ra, Satuq Bog’raxon Abdul Karim birinchi bo’lib islomni qabul qilgan va 344 hijriy (955-56 milodiy) yilda vafot etgan. Muallifning so’zlariga ko’ra, uning qabri Artuch qishlog’ida joylashgan bo’lib, o’sha davrda bu joy ziyoratgoh sifatida mashhur edi [10. 37].

Rivoyatga ko’ra, O’g’ulchaq Qodirxon – islomni qabul qilgan Satuq Bog’raxonning amakisi bo’lib, u hali kofir edi. Somoniylar sulolasidan bo’lgan musulmon shahzoda Nasr ibn Mansur o’z ukasi Ismoil ibn Mansurdan qochib, O’g’ulchaqqa keladi. O’g’ulchaq unga boshpana beradi va Nasrni Artuch viloyatiga hokim qilib tayinlaydi. Vanihoyat, Nasrxonning ishonchini qozonadi. So’ng u xondan sigir terisiga teng er so’raydi va u erda Allohga ibodat qilish uchun masjid qurmoqchi ekanini aytadi. O’g’ulchaq bunga rozilik beradi. Shundan so’ng Nasr bir sigirni so’yib, uning terisini uzun tasmalarga kesadi va shu tasmalarning uzunligi bo’ylab er o’lchab chiqadi. Shu joyda u Artuch jome masjidini quradi (muallif zamonida u hanuz mavjud edi). O’g’ulchaq Nasrning bu hiylasidan hayratda qoladi [10. 35-36].

Garchi bu rivoyat juda qadimiy bo’lsada, unda anachronizmlar – ayniqsa, Somoniylar sulolasiga oid noto’g’riliklar mavjud: keltirilgan ismlar va sanalar tarixiy ma’lumotlarga to’g’ri kelmaydi. Yuqorida aytilganidek, muallif Nasr va Ismoilni Nasr ibn Ahmadning o’g’illari deb ko’rsatadi, holbuki, aslida ular Ahmad Somoniyning nabiralari edilar [3. 209].

Ehtimol, Jamol ad-din al-Qarshiy manba sifatida Abd al-G’ofir al-Alma “Tarixi Kashg’ar” asaridan foydalangan, ammo unda Somoniylar sulolasi vakillarining ismlari noto’g’ri talqin qilingan.

Muallif shuningdek ta’kidlaydiki, Qaraxoniylar islomni Nasr (250/864-279/892) davrida qabul qilgan, ammo birinchi bo’lib islomni Satuq Bog’raxon (vafoti 344/955–56 y.) qabul qilgani aniq. Bu erda tarixiy xatolik bor, chunki Satuq Bog’ra–xon Nasr vafotidan 50-60 yil keyin yashagan. Shunday qilib, Jamol ad-din al-Qarshiy islomni qabul qilish voqeasini Nasr davriga, ya’ni ancha oldingi davrga ko’chirgan.

Keyin Jamol ad-din al-Qarshiy ba’zi turk xonlarini sanab o’tadi va ularning vafot sanalarini keltiradi. Uning yozishicha, Ali Arslonxonning o’g’li Nasr Arslon–ilig 402 hijriy (1011-1012) yilda O’zganda vafot etgan [10. 38]. Boshqa bir manbada Nasr Arslon–ilek 403 hijriy (1012-1013) yilda vafot etgani aytiladi [1. 131].

Numizmatik ma’lumotlarga ko’ra, Nasr ibn Ali 380 hijriy (990-991) yildan 402 hijriy (1011–1012) yilgacha o’z nomidan Movarounnahrning turli shaharlarida tangalar zarb qildirgan [15. 141]. Shuningdek, Farg’onada ham tangalar topilgan [12, 198]. Ba’zi ma’lumotlarga ko’ra, o’sha paytda Bolasog’un emas, balki O’zgand poytaxt bo’lgan [2. 566]. Numizmatik dalillar shuni ko’rsatadiki, Nasrning vafot sanasi eng ishonchli tarzda 403 hijriy (1012-1013) yil hisoblanadi [14. 108]. Shunday qilib, Jamol ad-din al-Qarshiy keltirgan 402 (1011-1012) yil sanasi haqiqatga unchalik to’g’ri kelmaydi. Aslida Nasr 403 (1012-1013) yilda O’zgandda vafot etgan. Keyin muallif Yusuf Qodirxonni – Xorun Bog’raxon ibn Husayn Tug’lashxon ibn Satuq naslidan bo’lgan shaxs sifatida tilga oladi. Uning yozishicha, Yusuf Qodirxon 424 hijriy (1032 milodiy) yilning muharram oyining o’rtalarida vafot etgan va Kashg’ar yaqinidagi Tumon daryosi bo’yida joylashgan mozorda dafn etilgan [10. 37].

Numizmatik ma’lumotlarga qaraganda, Yusuf Qodir–xon 1005 yilda Kashg’arni egallagan, 1009 yildan boshlab esa uning nomidan Kashg’arda tangalar zarb etilgan [8. 70-71]. Tojikiston Fanlar akademiyasi Tarix institutida saqlanayotgan Kashg’ar tangalarida “Qodirxon Yusuf ibn Bog’raxon” deb yozilgan [9. 257]. Numizmatik ma’lumotlar bu sanani ham tasdiqlaydi: Yusuf Qodirxon 1032 yilda (423–424 hijriy yillar oralig’ida) vafot etgan [13. 143]. Shu tariqa,

Jamol ad-din al-Qarshiy Yusuf Qodirxonning vafot sanasini to'g'ri keltirgan. Shuningdek, muallif Shams al-Mulk Abu-l-Hasan Nasr ibn Ibrohim haqida yozadi. U 471 hijriy (1078-1079) yilda hukmronlikni boshlagan [19. 47]. Shams al-Mulk o'z davrida Raboti Malik nomi bilan mashhur bo'lgan saroyi qurdirgan [4. 28-29].

Ak-qutal nomli joyda, Samarqand yo'lida joylashgan Xo'jand yaqinida Shams al-Mulk tomonidan ikkinchi rabot (saroy) qurilgan, va ba'zi manbalarga ko'ra, u o'sha erda dafn etilgan [4. 28-29].

Shams al-Mulkning vafoti haqida Narshaxiy "Tarixi Buxoro" asarida shunday deyilgan: "U 472 hijriy (1080 milodiy) yilning zul-qa'da oyida (aprel-may) vafot etgan." [6. 630]. Numizmatik manbalarga ko'ra, Shams al-Mulkning vafot sanasi aniq belgilanmagan, ammo V.V. Bartold o'z tadqiqotida shunday yozadi: "Qaraxoniylar davrida Movarounnahr hukmdori Shams al-Mulk vafot etgach (472/1080 yilda), taxtga uning ukasi Ahmad ibn Xizraxon o'tirgan"[5. 378].

Narsaxiyning "Buxoro tarixi" kitobida Shams al-Mulkning o'lim sanasi haqida shunday deyiladi: u zul-qa'da oyida, hijriy 472 yilda (milodiy 1080 yilning aprel-may oylarida) vafot etgan. Numizmatik (tanga) manbalarga asoslanib, Shams al-Mulkning o'limining aniq sanasi hali aniqlanmagan. V.V. Bartold Qoraxoniylar davriga oid tarixiy voqealarni tasvirlab, hijriy 472 yilda (1080) Movarounnahr hukmdori bo'lib Shams al-Mulkning ukasi Xizraxon taxtga chiqqanini xabar qiladi (5,378). Shundan kelib chiqib, Shams al-Mulk 472/1080 yilda vafot etgan, undan so'ng taxtni ukasi Xizraxon egallagan, degan xulosaga kelish mumkin. Agar shunday bo'lsa, Narshaxiyning "Buxoro tarixi" asarida keltirilgan ma'lumotlar (472/1080 y.) boshqa manbalarda, masalan, noma'lum muallif 471/1078-1079 yillar deb ko'rsatgan ma'lumotlarga nisbatan aniqroqdir. Keyinroq Jamol ad-Din al-Qarshiy Arslonxon Muhammadni Sulaymontegin ibn Dovud Kuchtegin ibn Ibrohim Tafroda ibn Ilyos Nasr al-Maziniyning o'g'li deb ataydi. Mazkur muallifning ma'lumotiga ko'ra, u hijriy 526 yil (milodiy 1132 y.) rajab oyida vafot etgan [7. 376].

"Kitobi Mullozoda" muallifi Ahmad ibn Muhammad xabar berishicha, Arslonxon Muhammad Balxda hijriy 524 (milodiy 1229-1030) yoki 525 (1130-1031) yilda vafot etgan, uning qabrini esa keyinchalik Marvga ko'chirib, o'zi qurgan madrasasida dafn etilgan. U Mavseus shahrida, Marv yaqinidagi qishloqlardan birida tug'ilgan bo'lib, Shams al-Mulkning nabirasi hisoblanadi [4. 486].

Bu shaxs haqida ma'lum bo'lgan yagona narsa shuki, u hali tirik paytidayoq Buxoro va Samarqandda uning nomi bilan tanga zarb etilgan [12. 274-276]. Tug'ilgan va vafot etgan sanalari haqida esa, "Kitobi Mullozoda" hamda biz ko'rgan boshqa manbalardan tashqari, ishonchli ma'lumot yo'q. Shu bois, bizda mavjud manbalarni o'zaro taqqoslab, Djamal ad-Din al-Qarshi va Mullozoda tomonidan keltirilgan sanalarning to'g'riligini aniqlash imkoniyati bo'lmadi. Ularning keltirgan sanalari bir-biridan vaqt jihatidan farq qiladi.

Jamol ad-Din al-Qarshiy xabar berishicha, Farg'ona hukmdori Husayn Tug'rulxon ibn al-Hasan Qoraxon hijriy 551 yilda (milodiy 1157 yil avgust oyida) rajab oyida vafot etgan [10. 37].

Qoraxoniylar sulolasining genealogiyasi va ularning xronologiyasini aniqlash uchun ayrim ma'lumotlarni 1152 yildagi Shimoliy O'zbekiston maqbarasining yozuvi beradi. Bu yozuvni A.Y. Yakubovskiy o'qib nashr etgan [16. 27-32]. Mazkur yozuvga ko'ra, bu maqbaraga Husayn ibn Hasan dafn etilgan. Yozuvda maqbara qurilishi boshlangan sana qayd etilgan bo'lib, bundan Husayn ibn Hasan aynan o'sha yili (547/1152) yoki undan biroz avval vafot etganini taxmin qilish mumkin. Shunday ekan, Hasan ibn Husaynning vafot sanasini 551/1157 yil deb bergan Jamol ad-Din al-Qarshi ma'lumoti to'g'ri emas.

Bizning muallifimiz ma'lumotiga ko'ra, Kampirak xoni Abul-Fath Muhammad Arslonxon o'z otasi hukmronligining oxirgi yillarida, ya'ni G'urxonni Qora Xitoy davrida, hijriy 607 (milodiy 1210-1211) yilda o'ldirilgan. U otasi dafn etilgan maqbarada dafn etilgan. Kuchluk G'urxon asirga olingan Arslonxonning o'g'lini o'ldirishga buyruq bergan, buning natijasida Kampirak vayron etilib, aholisining katta qismi, jumladan urug'-qabila boshliqlari ham qirib tashlangan [10. 37]. Juvayniy o'zining "Tarixi Jahonkusho" asarida yozishicha, Kuchluk G'urxonni asirga olgan va Qora Xitoylar shahridan Kampirak xoni Arslonxonning o'g'li Abul-Fath Muhammadni ozod etib,

60 uni Kampirakka qaytargan. Ammo u hali hokimiyatni rasman qabul qilib ulgurmasidan ilgariroq, amirlar tomonidan fitna bilan o'ldirilgan (11. 22).

Shundan kelib chiqadiki, Arslonxon Abul-Muzaffar Yusufning hukmronligi davridayoq – ya'ni Abul-Fath Muhammadning otasi zamonida – Sharqiy Turkistonda notinchliklar yuz bergan bo'lib, ularning paytida uning o'g'li asirga olingan. Ma'lumki, Abul-Fath asirlikda bo'lgan paytda, amirlar tomonidan, u Kampirakka kirishidan avvalroq o'ldirilgan, va bu voqea 607/1210-1211 yillar deb ko'rsatiladi. Yuqoridagi ma'lumotlardan kelib chiqib, shuni taxmin qilish mumkinki, G'urxon Qora-Xitoy tomonidan asirga olinishi voqeasi 1211 yilning birinchi yarmidan kech bo'lmagan.

**Xulosa.** Bizning muallif, ehtimol, o'z asarida ko'plab qimmatli manbalardan foydalangan. Afsuski, bu manbalar bizgacha to'liq holda yoki asl nusxada etib kelmagan, ba'zilari esa bizga faqat keyingi mualliflar orqali ma'lumdir. Shunga qaramay, muallifimiz Qoraxoniylar sulolasining aksariyat vakillarini aniq nomlari bilan tilga oladi va ularni qat'iy xronologik ketma-ketlikda bayon etadi. U shuningdek, boshqa o'rta asr manbalarida uchramaydigan bir qancha muhim omillarni ham eslatib o'tadi. Masalan, u Qoraxoniylar tomonidan islom dinining qabul qilinishi va musulmon davrining boshlanishi haqidagi ma'lumotni beradi. Bundan tashqari, u Qoraxoniylar sulolasining genealogik (nasab) daraxtini yanada batafsil yoritib, xususan, Satuk Bug'roxon davrining tarixiy xususiyatlarini ancha to'liq ifodalaydi. Jamol ad-Din al-Qarshi bergan ma'lumotlar Qoraxoniylar davrining siyosiy tarixini yoritishda muayyan ilmiy ahamiyatga ega bo'lib, ular Markaziy Osiyoning o'rta asr tarixini o'rganishda muhim rol o'ynadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. *Абу Наср ал-Утби. Та'рих ал-Йамини: рукопись. – ИНА, шифр С 342 (510).*
2. *Абу-л-Фазл Бейхаки. История Мас'уда (1030-1041 гг.) / вступ. ст., пер. и примеч. А. К. Арендса. – Ташкент: Фан, 1962.*
3. *Ас-Сам'ани. Китаб ал-ансаб : рукопись. – Азербайджанский музей, № 540а.*
4. *Ахмад ибн Мухаммад. Китоб-и мулло-зода : рукопись. – Азербайджанский музей, № 539 с.*
5. *Бартольд В. В. Сочинения : в 9 т. – Т. I. – Москва : Наука, 1963.*
6. *Бартольд В. В. Сочинения : в 9 т. – Т. II, ч. I. – Москва : Наука, 1963.*
7. *Бартольд В. В. Сочинения : в 9 т. – Т. V. – Москва : Наука, 1968.*
8. *Давидович Е. А. Нумизматические заметки // Известия Академии наук Таджикской ССР. Отделение общественных наук. – Душанбе, 1968. – № 3. – С. 45-56.*
9. *Давидович Е. А. Нумизматические материалы для хронологии и генеалогии среднеазиатских Караханидов // Труды Государственного исторического музея. – Вып. XXVI. – Москва, 1957. – С. 3–98.*
10. *Джемал ад-дин ал-Кариши. Мулхакат ас-Сурах: рукопись. – Азербайджанский музей, № В 514 (430а).*
11. *Джувейни. Тарихи джахангушай : рукопись. – Государственная публичная библиотека, шифр IV, 2, 34.*
12. *Марков А. К. Инвентарный каталог мусульманских монет Императорского Эрмитажа. – Санкт-Петербург, 1896.*
13. *Фёдоров М. Н. Очерк истории Караханидов второй четверти XI в. // История материальной культуры Узбекистана. – Ташкент, 1966. – С. 112-128.*
14. *Фёдоров М. Н. Клад караханидских дирхемов начала XI в. из Ташкента // Из истории материальной культуры Узбекистана. – Ташкент, 1964. – С. 89-104.*
15. *Фёдоров М. Н. Политическая история Караханидов в конце X — начале XI в. // Нумизматика и эпиграфика. – Москва, 1972. – Т. XI. – С. 57-76.*
16. *Якубовский А. Ю. Две надписи на северном мавзолее 1152 г. в Узгенде // Эпиграфика Востока. – Ленинград, 1947. – Вып. I. – С. 33-41.*